

**Oybekning Navoiy va Otaulining «Zanjirband sher» asarlaridagi
timsollarning kelib chiqish usullari .**

Toirova Umida Sobirovna

Buxoro davlat universiteti

Annotasiya : Maqola Mir Alisher hazratlari qalamlariga mansub "Zanjirband sher" suratining timsoli haqida bo'lib, unda sher zoosemasining turli manbalarda yoritilishini tasvirlanadi. Shu bilan birqalikda bu terminning kelib chiqishi va yoritilishi haqida alohida manbalarda e'tirof etilgan.

Annotation: This article is analysed the picture of "Zanjirband sher" which was drawn by Mir Alisher Navoi and describes the symbol of the lion's zoosemy in various sources. Besides it is mentioned the origination of this term through different types sources .

Аннотация: Статья Мир Алишера посвящена образу Львиной Цепи, описывающему зоозему льва в различных источниках. Однако происхождение и охват этого термина были признаны в отдельных источниках.

Kalit so'zlar : zoosema, timsol, ramz, nazm, alp, arslon.

Key words : zoosemy , symbol, sign, verse, alp, lion.

Ключевые слова: зоосема, символ, знак, стихотворение, алп, льва

Navoiyning to'liq ismi Mir Nizomiddin Alisher Navoiy deb yuritiladi. «Mir» so'zi amir so'zining qisqargan shakli bo'lib, shoh saroyidagi amal nomidir. «Nizom» so'zi yo'l-yo'riq, qoida demakdir. Navoiy o'z zamonining yirik din vakili edi, G'iyosiddin Muhammad o'g'liga Alisher deb nom qo'yari ekan, uni payg'ambarimiz sahabalaridan biri — Aliga o'xshashini orzu qildi, «Sher» so'zi ham Aliga nisbatan olingan. Payg'ambarimiz Alining dushmanlar bilan bo'lgan jangdagi jonbozligini ko'rib: «Ali — Ollohnning sheri», — der edi.

Navoiy umri davomida adabiyotda ko'plab adabiy meros qoldirib, xalqni o'z asarlari orqali tarbiyalab taskin berishga undagan zotlardan biridir. Ayniqsa asarlaridagi insonparvarlik, ezgulik va yaxshilikning yuksak maqomga ko'tarilishi hamda xalq dardi ila yashash tuyg'ularining ulug'lanishi tahsinga loyiqdir. Har bir yozuvchi Navoiy ijodidagi har bir serqirra tomonlarni ochishga, ularni tadbiq qilishga harakat qiladi. Ushbu maqola esa biroz Navoiy hayot davomida chizgan suratning majoziy ma'nolarini va uning kelib chiqishi haqidagi fikrlarni bayon etadi. Xo'sh Oybekning "Navoiy" romanida aynan "Zanjirband sher" jumlesi qanday ifoda etilgan degan savol tug'iladi.

1) *Shoir erksizlikni, g'ariblikni chugur alam bilan sezdi. Birdan o'rnidan turib, tokchadan qalami mo'y va qog'oz oldi. Ko'pdan buyon sira rasm mashq qilmagan edi. Biror narsa chizishni o'yladi: basharasi odam qiyofasida o'xshab ketgan sher. Bo'ynidan ikki tomonga yo'g'on zanjir tortilib, uchlari 2 qoziqqa bog'langan. Ammo zanjirband sher...mag'rur, Haydar kirdi. U uzoqdan ko'z tashlab, iljayib qo'ydi, keyin rassomning tepasiga kelib qichqirdi: "Alisher Navoiy janoblari zanjirda!" Navoiy ma'nodor kulimsirab qaradi-da, e'tiroz qilgandek, boshini chayqadi.*

-*Jamiki xaloyiq, men aytganim kabi anglaydi -dedi Haydar.348-349*

Yuqorida keltirilgan parchada Navoiyning musavvirlik san'atidan bohabar ekanligini, ayniqsa zerikkan chog'larida rassomchilik bilan mashg'ul bo'lganliklarini guvohi bo'lamic. Biroq parchada g'ariblikdan siqilib, qo'lga olingan mo'yqalam kuchli bir chizgilarga jonli ifoda baxsh etgan misoli yurakdan otilib chiqqan dard va alamni izhor etuvchi bir vosita bo'lsa ajab emas. Navoiy Zanjirband sher timsollida kimga ishora qilmoqchi, bu bilan shoir nimani isbotlab, uni xalq diqqatiga xavola qilmoqchi? Alisher Navoiy zanjirband sher orqali o'z umrini, do'sti Husayn Boyqaroning atrofida yurgan tulkidek ayyor, ilondek uning qo'yniga kirib olib tirmashgan fitnachi amaldorlarning qilmishidan o'zini go'yoki bir sher kabi zanjirlanib qo'yilgan zotdek his qiladi. Ikki tomonidan tortilgan zanjir

esa unga har ikkala tomondan qilingan tuhmat, bo'hton, ig'vo kabi illatlar shu zanjir misoli unga yog'ilib keladi.

2) *Navoiy qaytib, o'z o'rniga o'tirdi. Tomirlarida qon uyilgan kabi, og'ir darmonsizlik sezadi, ko'z uchi bilan "Zanjirband sherga qaradi".*

Albatta har bir ezgulik bor joyda unga qarama qarshiadolatsizlik va yomonlik bo'ladi, mana shunday bir mudhish holat bo'lishiga qaramay, ya'ni Navoiyning ovqatiga zahar berishga botingan yovuz niyatli kishilar qanchalik uni darmonsiz va zaif qilmasinlar, Navoiy o'zi chizgan "Zanjirband sherga "qarab qo'ydi.

3) *-Janob ustod-murojaat etdi Behzod*

-Sherning bo'ynidan zanjirlar uzildimi?

-Haydar ishontirdiki- dedi Behzod – u yolg'iz menga so'zlagan. Men rasmni ko'rmoqqa muhtojmen. Qachon ko'rsatursiz?

-Meniki bamisoli bolalarning chizmakashligidek bir narsa-dedi Navoiy.

-Zanjirband sher o'z asoratchilariga qarshi yana ham qo'rquinchliroq bo'ladi, -dedi sekingina Behzod.

-Sherning bo'yni zanjirga itoat qilsa ham, yuragi aslo bo'ysunmas, afsuski bu oddiy haqiqatni idrok etmaydilar.

-Aql va idrok insonlarga xos xislatdir-dedi Navoiy.

Haqiqatdan sherning xususiyatlari haqida muhokama qilar ekanmiz, uning mardlik, qo'rmas va sadoqat kabi timsollarda ishlatalishini guvohi bo'lganmiz. Ushbu keltirilgan misolda esa uning zanjirband bo'lishiga qaramasdan faqatgina uning jismi bo'ysunishi biroq, uning qalbi bo'ysunmasdan o'zi tanlagan haq yo'li orqali borishni xohlaydi. Ushbu suhbat jaayonida Behzod sherning bo'ynidagi zanjir uzilganini auqtirib o'tadi. Xo'sh yozuvchi bu bilan Navoiy hazratlarining mansabdan ketib ozod va kamtar inson sifatida o'z vatanlarida istiqomat qilganliklaridan dalolat beradi. Shu bilan birga razolatni yuzaga chiqaraman deya

intiladigan odamlarni, ko'mirchining yuzi qaro bo'lgani kabi yomon insonlarning,

Alp Er To'nga qo'l-oyoqlarini zanjirdan bo'shatish umidida sherdek na'ra tortgan ko'yi jon-jahdi bilan yulqinib-chiranar ekan, kutilmaganda atrofini bir guruh olomon qurshab oldi. Olomon uni chor tarafdan turtib-nuqib tutkilashga tushdi:

- *Qalaysan endi, sher, ish qalay?..*
- *Holingga maymunlar yig'laydi endi!..*
- *Meni zindonda chiritib o'ldirmoqchi eding, ana endi o'zing sher changalidagi quyondek!..*

Ushbu Zanjirband sher ma'nosini chuqurroq o'rganish maqsadida biz bir nechta adabiyotlarga va tarixga murojaat qildik. Ayniqsa Otauli tomonidan yozilgan razolati, ular uchun berilgan jazo va sharmandalik deya e'tirof etadilar ulug' shoirimiz .

” Zanjirband Sher” hikoyasi diqqat e'tiborimizdan chetda qolmadi. Alp Er To'nga turon hoqoni bo'lishiga qaramay uning ismining kelib chiqishi ham tarixga borib taqaladi. Demak Alp Er Tonga so'zining ma'nosи Yo'lbars kabi kuchli odam , botir va qahramon er degan ma'nolarda qo'llaniladi. Ushbu tarixiy qahramon ham turkiy xalqlarning dovyurak va qo'rmas sheri bo'lgan. Ammo inisining xiyonati sabab u dushman tomonidan uyushtirilgan fitnaga ishonib, zanjirband etiladi.

Nachora, zanjirband sher burgut emas! Ilon ham emas! Turon qoploni, Turon yo'lbarsi, Turon tulkisi, Turon ohusi... ham boshqalar! Xudoga shukur, u Turon sheri! Sher bo'lib tug'ilgan, sher bo'lib yashadi, sher bo'lib o'ladi! Nachora, zanjirband sher bo'lib o'lish manglayida bor ekan, shu topda shu alfovza o'lsa o'ladiki, lekin hech kimga bo'yin egmaydi, hech kimning oyog'iga bosh urib yalinib-yolvormaydi, hattoki o'z ukasidan ham na shafqat, na marhamat, na insof – hech nima so'ramaydi!..

Darhaqiqat sherning na'rasi, vajohati qanchalik kuchli va qo'rqinchli bo'lmasin u na na'ra tortishni, na to'lgonishni istardi. Uning yagona istagi zanjirda bo'lsa ham

mardlarcha dushman hamlaiga parvo qilmay tulkiga o'xshab ayyorlik va ilondek tilyog'lamachilik qilmasdan, Turonning qoploni, arsloni,yo'lbarси mardu maydoni bo'lib, hech qanday zanjir va hiyla uni bo'ysundirishga asloturtki bo'la olmaydi, tanasi zanjirda bo'lган taqdirda ham u birovga yolvorib yalinmaydi, balki u ozining kimlarning avlodi ekanligini, sherdek tug'ilib, sherdek yashagani va sherdek mardlarcha nomardlar qo'lida o'lishni xohlardi.

Buyuk Alp Er To 'nga – buyuk Afrosiyob buyuk Turonning xotirasida shu alfovda abadiy muhrlanib qoldi – zanjirband bo 'lsa-da, sherligicha qoldi! Oradan asrlar o'tib, qadimiy yunonlar uni Prometey qiyofasida o'z tasavvurlarida qayta jonlantirdilar. Oradan yana qancha-qancha asrlar o'tib, o'zlarini Alp Er To 'nganining vorislari deb bilgan buyuk qoraxoniylar saltanatida yashab o'tgan buyuk tilshunos Mahmud Qoshg'ariy o'zining buyuk «Devoni lug'atit turk» asarida bu xalq o'zining bu sheryurak alpi haqida yaratganlarini abadiyatga muhrladi. Yana necha asrlar o'tib, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy, hoynahoy o'z jigarbandi Darvishalining xurmacha qiliqlaridan yuragi o'rtanib, «Navosiz ulusning navobaxshi bo'l, Navoiy yomon bo 'lsa sen yaxshi bo 'l» shohbaytini yozib ham o'zida ruhiy qoniqish his qilolmadi. Kunldardan bir kuni zanjirband sher suvratini chizdi-da, tagiga o'z dastxati, murod-maqsadi, nomai a'moli, orzu-armoni, butun o'zligini ikki forsiy, uch turkiy – jami besh so'zga jamuljam-u bir tutam qilib bitdi: «Zanjirband sher – yengaman der! »

Bunday jasorat egasi haqida tarixchilar ham, ijodkorlar ham madh etishni istashadi. Albatta bu Turon mardi asrlar mobaynida tillardan tillarga doston bo'lib, hali ham boshqa asarlar ichidan o'ziga xos bir xususiyat ila tilga olinadi. Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» asrida ham bu jasorat haqida fikrlar yuritilib, uni Turon arsloni deya nomlaydi. Nech asrlardan so'ng Navoiy shoirimiz ham buni o'z ijod yo'llarida qo'llashni xush ko'rdilar va sherni Zanjirda bo'lsada, o'z maqsadi va orzusi yo'lida sira yengilmaydigan, mag'lub bo'lmaydigan Yengilmas deb e'tirof etishdan to'xtamaydilar.

Boshqa adabiyotlarda esa quyidagi misol Zanjirband sher timsolini butunlay o'zgartirib yubordi.

Mir Alisher zanjirband sherning suratini chizib, Husaynga uzatibdi. U suratni obdon tomosha qilib: - Nimaga sherni zanjirlab qo'yibsiz? - deb so'radi.

-Sizning oldingizda barcha olimlar-u shoirlar,donolar-u yaxshilar ana shu zanjirband sherga o'xshaydilar. Siz ularning barini bezanjir band etib qo'ygansiz. Ammo sher xoh zanjirband bo'lsin, xoh beband ekan, hamisha mag'lubiyatni xayoligayam keltirmaydi ,maqsadi yengib chiqmoq –debdi Mir Alisher.

Albatta bu surat orqali Alisher hazratlari Husayn Boyqaroga qarata bir ishora ya'ni majoz sirini tasvirlar ekanlar, podshoh atrofidagi barcha ilm peshvolari go'yoki o'zlarini zanjirlangan sher kabi his qilishlarini va podshoh mulozimlari ularning ilm yo'lidagi zahmatlarini qadrlamasdan, ularga doimiy fitna vaadolatsizliklar qilib yo'llarini to'sib turganlari ularni mana shunday zanjirda saqlayotganini uqtirib o'tdilar. Gar zanjirda bo'lsada sher o'z maqsadi yo'lida hech narsadan qaytmaydi, unga zanjir atalmish to'siq ta'sir etmaydi. U o'zini g'olib sezib, mag'lubiyatni tan olmaydi. Uning g'olibligi esaadolat va ezgulik yo'lida qilingan ishlar bilan o'lchnadi.

O'zbek adabiyotining eng buyuk shoiri E.Vohidov ham bu haqida quyidagi fikrlarni keltirib,Zanjirband sherga shunday ta'rif va tavsif beradilar:

Navoiy dahosiga misol keltirsam. Navoiyning bir asari bor, unga ko'pchilik shoirning shunchaki rassomlik borasidagi mashqi deb qaraydi. U «Zanjirband sher» asari. Undagi sher qafasda emas, ochiq havoda, lekin bog'langan. Temir halqalardan iborat zanjir — zamon, turmush, saroy talablari va h.k. Zanjirband sher esa — Navoiy. Hozircha u zanjirband, zamonga bog'langan, lekin tezda zanjirni uzadi, nafaqat uzadi, balki zamon zanjirini bir qancha masofaga olg'a tortib boradi, insoniyatni yangi zamon tomon yaqinlashtiradi. Ba'zilar uchun o'ng qo'l vazir lavozimidan bosh tortish, mol-dunyo, yuqori mansab bilan qiziqmaslik aqldan emasdek tuyuladi.

Shoirimiz Erkin Vohidov aytganlaridek, buyuk daho Alisher Navoiy o'zlarini sher misoli qafada emas, balki jamiyatning illatlarini shu temir zanjir orqali ifodalab, o'zlarini zanjirda mahkamlab qo'yilgan kabi his etardilar. Vaqt kelib zanjir uzilib, zamonadagi qora bulutli kunlar o'mnida yaxshi kunlar insonlarni o'zgacha zamonga qarab borishiga hech shubha qilmaydi.

Vatanimiz shoirlari bunday Zanjirband sher suratidan to hozirgi kungacha ta'sirlanib, Abdulla Oripov va Abdulla Sher ham o'z ijodlarida bu haqida to'xtalib o'tdilar.

Besh asrkim nazmiy saroyni,

Titratadi zanjirband bir sher.

Temur tig'i yetmagan joyni,

Qalam bilan oldi Alisher.

ZANJIRBAND Sher

Zanjirband sher yengaman der.

Alisher Navoiy

Men bilmayman, bu ne jahd-jadal,

Bu qandayin aql yetmas sir:

Men tug'ilmay, besh asr avval,

Suvratimni chizmish Ulug' Pir.

Zanjirband sher, boq, yengaman der, –

Yirtilgudek jaranglar qog'oz.

Alisher Navoiyning bebaho merosi besh asrdan buyon o'rganilib, uning asarlari nafaqat turk zaminida balki butun dunyo bo'ylab mashhur bo'lib kelmoqda.Uning asarlaridagi ezgulik, xalqchillik, insonparvarlik kabi tuyg'ularning ulug'lanishi butun insoniyatni larzaga solib kelmoqda. Bejizga Abdulla Oripov Navoiy ijodi va asarini zanjirband sher misolida keltirib, uni butun jahonni titratganini ham aytib o'tadilar.

Abdulla Sher ijodiga nazar tashlasak uning zanjirban Sheri mag'lublikni xush ko'rmaydigan, bundan besh asr muqaddam bu piri komil bu suratni chizib, abadiyat sher timsolini meros qoldirib, uning zamiridagi Navoiy hazratlari aytib o'tgan ushbu mantiq hali hanuz kitobxonlar nazdidan tushmagan. Bundan tashqari uning Yengmoq tushunchasi esa hamon ijod varaqlarini larzaga solib kelmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Zanjirband Sher " talqini ya'ni uning zoosemasi tarixga borib taqaladi. Navoiy esa uni o'z talqinida surat sifatida namoyish etishga va uni chiroyli majoziy ma'noga ega bir so'z bilan tasvirlaydi. Uning zanjirdagi sheri albatta o'zining hayoti mobaynidagi chekkan dard-u sitamlari, unga qarata yog'ilgan tuhmat balolari misolida aks ettirilgan. Zanjirdagi sher esa shoirning o'zi bo'lib, uningadolat va ezgulik yo'lida qilinadigan ishlari go'yoki zanjir kabi bog'langan. Ya'ni podshoh atrofidagi vazir-u mulozimlarning qilgan qilmishlari shu zanjirni zanjirlashga turtki bo'ldi. Lekin Sher zanjirda bo'lsada, uning yaxshilik yo'lidagi umidlari so'nmagan, aksincha unga kuch va g'ayrat berishga asos bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. (<http://marifatyogdusi.uz/?p=1723>
- 2.Oybek "Navoiy" Yangi nashr Toshkent 2019 (348-bet)
- 3.Oybek "Navoiy" Yangi nashr Toshkent 2019 (378-bet)
- 4.Otauli "Zanjirband sher" hikoyasi ziyo.uz kutubxonasi

5. A.Oripov ''O'zbekiston Qasida''Yosh Gvardiya nashriyoti Toshkent 1972 yil
14-bet

6.A.Sher ''Roz''She'rlar.Toshkent 1980 .G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at
nashriyoti 57-bet

7.<https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/erkin-vohidov-ozbek-navoiyni-oqimay-qoysa-to-quyosh-sochgayki-nur-erkin-vohidov-haqida-film.html>